

2017 yilning yanvar-iyul oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

1061.6 mlrd. so'm

Yirik pudrat tashkilotlari
ulushi – **4.7%**

Kichik tashkilotlar va
mikrofimlar ulushi –
51.6 %

Norasmiy sektor ulushi –
43.7 %




	Yirik pudrat tashkilotlari	• hajmi - 50,1mlrd.so'm • o'sish surati - 76.4 %
	Kichik tashkilotlar va mikrofimlar	• hajmi-547.9 mlrd.so'm • o'sish surati - 109.5 %
	Norasmiy sektor	• hajmi-463.6 mlrd.so'm • o'sish surati - 96.2 %

Yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Andijon viloyatida jami **1061.6** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101.1 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **50.1** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4.7 %** hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **76.4 %** ni tashkil etdi. Kichik korhona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **51.6 %** i yoki **547.9** mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,5 %** tashkil etdi, norasmiy sektorda esa **48.0 %** yoki **463,6** mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **96.2 %** ni tashkil etdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **82,2 %** ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,7 %** ni tashkil etdi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda jami hajmning **5,9 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **96,2 %** ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa jami hajmning **11,9 %** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **99,6 %** ni tashkil qildi.


Yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi *(jami hajmdagi ulushi %)*




Yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi (mlrd.so'm)



Qurilish ishlarining mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi (%)




Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so 'mda)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori hissasi Andijon shahrida kuzatildi. Ushbu hududda ob'ektlar o'tgan yilga nisbatan ko'payganligi va norasmiy sektor ulushi ortganligi sababli ushbu hududda qurilish ishlari hajmi **365,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori bajargan shahar tumanlar jumladan: Oltinkul tumanida **137,9 %** ni, Asaka tumanida **113,4%** ni, Xonobod shaxrida **120,6 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmini keskin oshishiga yanvar-iyul oylarida qurilish obyektlari soni oshganligi va jismoniy shaxslar tomonidan noturar (maishiy, umumiy ovqatlanish, savdo va boshqalar) ob'ektlar qurilishini ko'payganligi sabab bo'ldi.

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmining **4,7 %** i yirik pudrat tashkilotlari hissasiga tog'ri kelmoqda. Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining eng yuqori ulushi Jalakuduk tumaniga to'g'ri kelib, Suv xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan "Jalaquduqdavmaxsuspudrat" davlat korxonasi tomonidan bajarilgan va jami qurilish ishlari hajmining **17,3 %** ni tashkil etdi. Hududda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan salmoqli qurilish ishlari bajarildi va ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududdagi jami qurilish ishlarining **51,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga qurilish ishlari hajmining **43,7 %** i to'g'ri keladi.

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish

statistikasi bo'limi

***Aloqa telefoni:* (0374)228-29-37**